

PEDAGOGNING MULOQOT MADANIYATI

Abdukabirova Yulduzxon Islomjon qizi

Farg'ona politexnika instituti akademik litseyi

Matematika fani o'qituvchisi

Mirzayev Murodjon Mo'minovich

Farg'ona politexnika instituti akademik litseyi

Matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Pedagog faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita pedagogik muloqot madaniyati haqida fikrlar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *Muomala odobi, pedagogik muloqot, pedagogik qobiliyat, shaxslararo munosabat, psixologik iqlim.*

*Tabiat umidla bizni yaratib,
Dunyoda yashashga berildi imkon.
Halolligu-rostlik tanda jo'sh urib,
Yursin deya odamga berildi zabon.
Yo'ldoshali Ergashev*

Muomala – odam uchun ehtiyoj, zaruratdir. Muomala deganda avvalo so'z va nutq yani so'zlashish odobini tushunamiz. Insonda doimo turadigan husnu-latofat uning hayo bilan shirin so'zidir. Bu o'rinda so'zni uch toifaga: shirin so'z, shakar so'z, zahar so'zga ajratishimiz mumkin. Insonlar bu toifalangan so'zlarning qay biridan foydalanishiga qarab ularga nisbatan xushmuomala, shirinso'z, kamtar, dono, oqil, lo'nda fikrlovchi, ezma, betgachopar, hayosi so'zida mujassam, xushfe'l, ochiqko'ngil, shirinsuhan kabi sifatlar beriladi. Bu sifatlardan ko'rinib turibdiki so'z bu inson uchun libos bo'lib, so'zlashuv madaniyatini tartibga soladigan, shaxs xulqi go'zalligini aks ettiradigan ma'naviy-axloqiy xususiyatni ifodalovchi tushuncha. Muomala odobiga ko'ra yaxshi-yomon so'z insonning ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bu o'rinda Pedagoglar jamoasidagi shaxslararo munosabat, pedagogik muloqot ta'lim dargohidagi o'quvchilar uchun ibrat va namunadir. Shu bilan birgalikda pedagogik muloqot madaniyati pedagog faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, o'qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifga ega. Pedagogikaning kategoriyasi sifatida muomala o'quvchilar qalbiga yo'l topa olish, ularga hayrixohlik bilan yondashib mehrini qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyatidir.

O'qituvchi o'quvchi bilan muomalaga kirishish asosida: 1. O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi. 2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi. 3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi. 4. O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topadi.

Shunday ekan, muomala o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lishi kerak va shu bilan birga o'zida katta pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtirib borishi kerak. Pedagogik muomalada pedagog quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim: - bola bilan ishlash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi va ta'sir o'tkaza olishi; - muomala ob'yekti bo'lmish o'quvchilar diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo- ishoralarni o'z o'rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta'sirni bilishi; - bolalarning ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, darsni boshlashdan oldin o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi; -

o'quvchilarga og'zaki, o'zaro ta'sir ko'rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi.

Pedagogik muomalaning yana bir "ko'zgusi" bu insoniy qarash, nigoh, so'zsiz harakatlardir. Pedagogning qarashida, yuz ifodasida, qo'l harakatlarida uning til orqali, so'zga aylanmagan hissiyoti o'z aksini topadi. Ba'zan qarab qo'yishning o'zi so'zdan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Pedagogning nutqi ravon, bolalar ongiga ijobiy ta'sir qiladigan bo'lishi muomala, o'zaro munosabatlar doirasida rivojlanib boradi. Pedagog muloqot asosida o'z tarbiyalanuvchilariga aniq bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma'lum qiladi. Bunda pedagog tomonidan yo'l qo'yiladigan arzimas bir xatolik, adolatsizlik, qo'pollik o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatining buzilishiga sabab bo'ladi va tuzatib bo'lmaydigan og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Yani – o'quvchida qo'rquv, o'z kuchiga ishonmaslik, unung diqqat-e'tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatiga erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo'ladi: - pedagogik muloqot orqali o'qituvchi o'quvchi ob'yekt bilan o'ziga xos muomala muhitini yaratadi. O'qituvchi o'quvchilarning ichki dunyosini tushunib, ya'ni individual psixologik xususiyatlarini hisobga olib muloqotga kirishadi. O'qituvchining muloqot madaniyati asosida gapiradigan har bir so'zi, fikri, turli hodisa va jarayonlar o'quvchilar tomonidan har xil ko'rinishda tushuniladi, bu o'quvchining fikr mulohazasiga, ichki dunyosining teranligiga, tafakkuri va dunyoqarashining kengligi bilan izohlanadi, bunda o'qituvchi mahoratining uchta jihatiga alohida e'tibor qaratiladi: hayotiy tajribasi; pedagogik faoliyat jarayonida egallagan ko'nikma va malakasi; muayyan o'quvchilar jamoasi bilan muomalada bo'lish tajribasi.

Pedagogik muloqot – bu o‘qituvchining o‘quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda eng qulay psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad: o‘quvchilarning yashirin qobiliyatlarini uyg‘otish, dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilsh, o‘quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o‘z fikr mulohazalarini cho‘chimasdan bayon qilib unga tayanishga o‘rgatish, salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish, o‘quvchilarda mustaqil fikr yiritish ko‘nikmalarini hosil qilish.

Yuqorida keltirilgan ketma-ketlikka amal qilingandagina har bir pedagogning ish faoliyati bir tekis va ravon ketadi. Shu bilan birga pedagogik muomala madaniyati to‘g‘ri yo‘naltirilgandagina jamoada ijobiy psixologik iqlimni tarkib toptirish mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” T-2021.
2. B. X. Daniyarov, A. E. Rahimov, F. H. Jabborov “Axborot asrida ta’lim - tarbiya” T-Akadem nashr 2012-yil.24-25-bet.
3. F. Akbarova, B. Ahmedov, V. Karimova, A. Kamilov, M. Komilov, A. Xolbekov, R. Shomansurova, D. Yakubova “Hayot kitobi”, ”Sharq” nashriyot-matbaa aksionerlik kompaniyasi bosh tahririyati.T-2011.84-bet.
4. “Axloq- odobga oid Xadis namunalari” T-1990.